

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	33
Farmanov Jonibek Ziyadullayevich	
BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	38
Mansurova Arofatxon Shavkat qizi	
BANKLARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	43
G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li	
IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI	50
Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna	
BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	56
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH	60
Asemova Rano Jabbarbergenovna	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....	66
Ли Марина Рудольфовна	
POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI	70
Hasanov Bahrom Bo'ronovich	
XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....	76
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....	79
Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich	
LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS	84
Ergashev Adizbek Kamol ugli	
DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	94
Dilmira Abdumalikovna Shamusarova	
MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....	99
Yusupova Mehrigon O'ktamovna	
EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH	104
Turayev Baxtiyor Ergashevich	



PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....	110
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad	
CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....	119
Yusufjon Pulatov	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	129
Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li	
МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	135
T.T. Жураев	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI	140
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI	146
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА	153
Алиева Сусанна Сейрановна	
BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	160
Ibragimov Aziz Turayevich	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	168
Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu	
TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....	176
Alimova Shamsiya Abidovna	
ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	182
Умарова Шахноза Акбаровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	190
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	200
Ulug'bek Abraxmatov	
ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....	204
Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.	
TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI	209
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES	214
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	



THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS	221
Toshmurod Kulmanov, Sarvar Urinov	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION JARAYONLARNI MOLIYALASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI	228
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, A'zam Qutbiddin A'zamzoda	
ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	234
Омокеев Максымбек Конколойевич	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI	239
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
МАХАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ХАРАЖАТЛАРИ САМАРАЛИ ИЖРОСИНING MOLIYAVIY MUSTAQILLIKKA TA'SIRI	244
Usmonov Parviz Shavkatovich	
О'ZBEKISTONDA NAQD PULLARNING AYLANMASINI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI	249
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
СОЦИАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ	258
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA IJTIMOIIY-IQTISODIY ISLOHOTLAR TAHLILI	263
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ ОБЪЁМА ИНВЕСТИЦИЙ К УРОВНЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ ПРОЗРАЧНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ РЫНКОВ	270
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOT SALOHİYATINI OSHIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	277
Samandarov Jamshidbek Davronbekovich	
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	283
Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi	



SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi

Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,
“Biznes va boshqaruv” kafedrası assistenti
ORCID: 0009-0000-6616-7127



Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli yoʻnalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda 2010–2025-yillarga oid statistik maʼlumotlar asosida asosiy kapitalga investitsiyalar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, innovatsion faoliyat, axborot-kommunikatsiya xizmatlari va ekologik koʻrsatkichlarning oʻzaro bogʻliqligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari investitsiyalar hajmining ortishi sanoat ishlab chiqarishining kengayishiga, innovatsion faoliyatning rivojlanishiga va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashishiga xizmat qilishini koʻrsatdi. Shuningdek, sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish va sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit soʻzlar: investitsiya jarayonlari, sanoat korxonalarini, asosiy kapitalga investitsiyalar, innovatsion faoliyat, raqamlashtirish, sanoat mahsulotlari, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya siyosati.

Abstract. This article examines the development trends and prospective directions of investment processes in industrial enterprises of the Kashkadarya region. Based on statistical data for 2010–2025, the relationship between fixed capital investment, industrial output, innovation activity, information and communication services, and environmental indicators was analyzed. The results show that the growth of investment contributes to the expansion of industrial production, the development of innovation activity, and the acceleration of digitalization processes. In addition, priority directions for improving investment activity in industrial enterprises were substantiated. The findings have practical significance for improving regional investment policy and enhancing the competitiveness of industrial enterprises.

Keywords: investment processes, industrial enterprises, fixed capital investment, innovation activity, digitalization, industrial output, economic development, investment policy.

Аннотация. В данной статье исследованы тенденции развития и перспективные направления инвестиционных процессов на промышленных предприятиях Кашкадарьинской области. На основе статистических данных за 2010–2025 годы проведен анализ взаимосвязи между инвестициями в основной капитал, объемом промышленного производства, инновационной деятельностью, услугами в сфере информационно-коммуникационных технологий и экологическими показателями. Результаты исследования показали, что рост инвестиций способствует расширению промышленного производства, развитию инновационной деятельности и ускорению процессов цифровизации. Кроме того, обоснованы приоритетные направления совершенствования инвестиционной деятельности на промышленных предприятиях. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования региональной инвестиционной политики и повышения конкурентоспособности промышленных предприятий.

Ключевые слова: инвестиционные процессы, промышленные предприятия, инвестиции в основной капитал, инновационная деятельность, цифровизация, промышленная продукция, экономическое развитие, инвестиционная политика.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sanoat tarmogʻi muhim oʻrin tutadi. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik yangilash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari koʻp jihatdan investitsiya jarayonlarining samaradorligiga bogʻliq. Shu sababli investitsiya

faoliyatini rivojlantirish va investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish masalalari iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish hamda hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarida asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirish imkonini bermoqda.

Qashqadaryo viloyati mamlakatning yirik sanoat hududlaridan biri hisoblanib, unda yoqilg'i-energetika, kimyo, qurilish materiallari, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati tarmoqlari rivojlangan. Viloyatda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishiga, innovatsion faoliyatning kengayishiga va iqtisodiy faollikning ortishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish va istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahon amaliyotida investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Kapital qo'yilmalarning ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligiga ta'siri iqtisodiy o'sish nazariyalarining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, investitsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlarini baholash va ularning sanoat rivojlanishiga ta'sirini aniqlash dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda investitsiya faoliyatini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish;
- investitsiyalar va sanoat ishlab chiqarishi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash;
- innovatsion faoliyat va raqamlashtirishning investitsion rivojlanishga ta'sirini aniqlash;
- investitsiya jarayonlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish nazariyasida investitsiyalarning o'rne va ahamiyati turli ilmiy maktablar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ularning natijalari zamonaviy investitsiya siyosatini shakllantirishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi roli dastlab neoklassik iqtisodiy o'sish nazariyasi vakili Solow tomonidan asoslab berilgan. U kapital qo'yilmalar hajmining ortishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil ekanligini ta'kidlagan (Solow, 1956). Keyinchalik Lucas (1988) inson kapitalining investitsiya jarayonlaridagi ahamiyatini yoritib bergan bo'lsa, Romer (1990) innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotni iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida baholagan.

Mankiw, Romer va Weil (1992) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda investitsiyalar, mehnat resurslari va inson kapitalining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri empirik jihatdan asoslangan. Ularning fikricha, investitsiya faolligining ortishi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish bilan bir qatorda, mehnat unumdorligining oshishiga ham xizmat qiladi.

Levine (1997) moliyaviy tizim rivojlanishi va investitsion faollik o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etib, moliyaviy institutlarning samarali faoliyati investitsiyalar hajmining ortishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashishiga olib kelishini ko'rsatgan. Porter (1998) esa investitsiyalarni mamlakat va hududlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholagan.

So'nggi yillarda investitsiya jarayonlarining innovatsion rivojlanish bilan bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Grossman va Helpman (1991) innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashini ta'kidlagan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya xizmatlarining rivojlanishi investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham investitsiya jarayonlari va sanoat rivojlanishi masalalari keng o'rganilgan. Xususan, Vahobov investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion muhit jozibadorligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan. Berkinov mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiyalarning o'rne va hududiy rivojlanishga ta'sirini tahlil qilgan. Mustafakulov investitsiya siyosatini takomillashtirish hamda investitsion muhitni yaxshilashning institutsional jihatlariga alohida e'tibor qaratgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar, innovatsiyalar va sanoat rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik



yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, hududiy darajada investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlarini kompleks baholash masalalari hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalari misolida investitsiya faoliyatining ishlab chiqarish, innovatsion rivojlanish va raqamlashtirish jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish zarurati mavjud.

Mazkur tadqiqotning o'ziga xos jihati shundaki, unda investitsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari hududiy statistika ma'lumotlari asosida baholanib, investitsiya faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalarini baholash hamda investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi hamda ochiq statistik ma'lumotlar bazalarining 2010–2025-yillarga oid ma'lumotlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, axborot va aloqa xizmatlari hajmi, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi hamda ekologik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar tizimlashtirildi va tahlil qilindi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- statistik guruhlash va umumlashtirish usuli;
- dinamik qatorlar tahlili;
- taqqoslash va qiyosiy tahlil usuli;
- iqtisodiy-statistik tahlil;
- grafik va jadval usullari;
- mutlaq, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar tahlili.

Tahlil davomida investitsiya jarayonlarining rivojlanish darajasini baholash uchun asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi asosiy ko'rsatkich sifatida qabul qilindi. Investitsiyalar hajmining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, innovatsion faoliyat va axborot-kommunikatsiya xizmatlari bilan bog'liqligi dinamik qatorlar asosida o'rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatining sanoat korxonalari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar hisoblanadi.

Tahlil natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida statistik ma'lumotlar yillar kesimida solishtirildi hamda ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari baholandi. Olingan natijalar asosida investitsiya jarayonlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologik yondashuv sanoat korxonalarida investitsion faollikning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash, investitsiyalarning sanoat rivojlanishidagi o'rnini baholash va investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalarini baholash maqsadida 2010–2025-yillarga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Tahlilda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, axborot va aloqa xizmatlari hajmi, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ekologik ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi o'rganildi.

Tahlil natijalari investitsiya jarayonlarining sanoat rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot davrida investitsiyalar hajmi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'rtasida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatildi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida investitsiyalar va sanoat rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari¹


Ko'rsatkichlar	2010-yil	2025-yil	O'zgarish (marta)
Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd so'm	4 957,5	41 521,5	8,4
Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so'm	1 792,8	36 743,6	20,5
Axborot va aloqa xizmatlari hajmi, mlrd so'm	64,9	1 802,7	27,8

1 *Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.*

Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, ming tonna	141,2	88,6	0,63
---	-------	------	------

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2010–2025 yillar davomida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 20 martadan ortiq oshgan. Shu davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham 8,4 martaga ko'paygan. Bu holat investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Investitsiyalar hajmi dinamikasi. Investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini chuqurroq baholash maqsadida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining yillar bo'yicha o'zgarishi tahlil qilindi.



1-rasm. 2010–2025-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, investitsiyalar hajmi 2010-yildagi 1792,8 mlrd so'mdan 2025-yilga kelib 36743,6 mlrd so'mga yetgan. Ayniqsa, 2017–2019 hamda 2023–2025-yillarda investitsiyalar hajmining keskin ortishi kuzatilgan. Mazkur holat viloyatda amalga oshirilgan investitsion loyihalar, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi va sanoat infratuzilmasining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada o'sgan. Xususan, 2010-yilda 1849,0 mlrd so'mni tashkil etgan innovatsion mahsulotlar hajmi 2022-yilga kelib 40451,6 mlrd so'mga yetgan. Bu sanoat korxonalarida texnologik yangilanish jarayonlari jadallashganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, axborot va aloqa xizmatlari hajmi 2010-yildagi 64,9 mlrd so'mdan 2025-yilga kelib 1802,7 mlrd so'mga yetgan. Mazkur ko'rsatkichning 27,8 martaga ortishi sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasidir.

2-jadval


Investitsiyalar va sanoat rivojlanishi ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari²

Ko'rsatkich	O'sish sur'ati (%)
Asosiy kapitalga investitsiyalar	1949,4
Sanoat mahsulotlari hajmi	737,6
Axborot va aloqa xizmatlari	2677,7
Innovatsion mahsulotlar hajmi (2010–2022)	2087,7

Natijalar investitsiyalar va raqamlashtirish ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu esa investitsion va innovatsion omillarning sanoat rivojlanishidagi muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Investitsiyalar va sanoat ishlab chiqarishining qiyosiy tahlili. Investitsiyalar hajmi hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'zaro bog'liqligini baholash maqsadida qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

2 muallif hisob-kitoblari asosida.



2-rasm. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va investitsiyalar dinamikasining qiyosiy tahlili

2-rasm natijalaridan ko'rinadiki, investitsiyalar hajmining ortishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan bir vaqtda sodir bo'lgan. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi davrda investitsiya faolligining kuchayishi ishlab chiqarish hajmining sezilarli o'sishiga xizmat qilgan.

Investitsion rivojlanishning asosiy tendensiyalari. O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi tendensiyalar aniqlandi:

- sanoat korxonalariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega;
- investitsiyalar hajmining ortishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining kengayishiga xizmat qilmoqda;
- innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishning ko'payishi sanoat korxonalarining texnologik rivojlanishini jadallashtirmoqda;
- axborot-kommunikatsiya xizmatlari hajmining ortishi raqamlashtirish jarayonlarining faollashayotganligini ko'rsatmoqda;
- ekologik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, tahlil natijalari Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlari izchil rivojlanayotganligini hamda investitsiyalar, innovatsiyalar va raqamlashtirish sanoat rivojlanishining asosiy omillari hisoblanishini ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyati sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, investitsion faollikning sanoat rivojlanishiga ta'siri baholandi. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

2010–2025-yillar davomida Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 20,5 martaga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa 8,4 martaga oshgan. Bu investitsiya faoliyatining sanoat ishlab chiqarishining kengayishidagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari investitsiyalar hajmining o'sishi bilan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'rtasida barqaror musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Investitsion faollikning kuchayishi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Axborot va aloqa xizmatlari hajmining 27,8 martaga ortishi sanoat korxonalarida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashayotganligini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o'sishi sanoat korxonalarining texnologik rivojlanish darajasi ortayotganligini hamda investitsiya resurslarining innovatsion yo'nalishlarga yo'naltirilayotganligini ko'rsatdi.

Atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmining kamayishi sanoat korxonalarida ekologik xavfsizlik talablariga rioya etish va resurs-tejamkor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan

chora-tadbirlar samaradorligini tasdiqladi.

Investitsiyalar, innovatsiyalar va raqamlashtirish omillari sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshiruvchi hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi muhim omillar sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Sanoat korxonalariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar tarkibida texnologik modernizatsiya va yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi loyihalarga yo'naltiriladigan mablag'lar ulushini oshirish maqsadga muvofiq.

Korxonalarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish uchun ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish zarur.

Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt elementlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etishni jadallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish lozim.

Investitsion loyihalarni tanlash va baholash jarayonlarida ekologik samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobga olish hamda "yashil investitsiyalar" ulushini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish maqsadida sanoat korxonalarining investitsion jozibadorligini oshiruvchi institutsional mexanizmlarni rivojlantirish va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish choralarini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, sanoat korxonalarida investitsiya jarayonlarini samarali boshqarish, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va raqamlashtirish darajasini oshirish sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishi hamda hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No. 1. – P. 65–94.
2. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. S71–S102.
3. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. – 1988. – Vol. 22, No. 1. – P. 3–42.
4. Levine R. Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda // Journal of Economic Literature. – 1997. – Vol. 35, No. 2. – P. 688–726.
5. Pesaran M.H., Shin Y., Smith R.J. Bounds Testing Approaches to the Analysis of Level Relationships // Journal of Applied Econometrics. – 2001. – Vol. 16, No. 3. – P. 289–326.
6. Gujarati D.N., Porter D.C. Basic Econometrics. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill/Irwin, 2009. – 922 p.
7. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. – 7th ed. – Boston: Cengage Learning, 2020. – 865 p.
8. Mankiw N.G., Romer D., Weil D.N. A Contribution to the Empirics of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. – 1992. – Vol. 107, No. 2. – P. 407–437.
9. Grossman G.M., Helpman E. Innovation and Growth in the Global Economy. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 359 p.
10. Vahobov A.V. Investitsiyalarni moliyalashtirish va boshqarish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 312 b.
11. Mustafakulov Sh.A. O'zbekistonda investitsion muhitni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №6. – B. 15–24.
12. World Bank. World Development Report 2024: The Middle-Income Trap. – Washington, DC: World Bank, 2024.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100